**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d.(PhD) F.P.Davronova tomonidan 60310100-Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 102-guruh talabalariga ingliz tili fanidan "Topic: Shopping. Grammar:Past Simple"mavzusida tayyorlangan amaliy mashg'ulot ishlanmasiga**

# TAQRIZ

F.P.Davronova tomonidan Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi I bosqich 102-guruh talabalariga ingliz tili fanidan "Topic: Shopping. Grammar: Past Simple" mavzusida amaliy mashg'ulot ishlanmasi tayyorlangan.

Amaliy mashg'ulot ishlanmasi Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quv dasturi va sillabusiga mos ravishda tanlangan.

Amaliy mashg'ulot ishlanmasi interfaol texnologiyalar asosida batafsil yoritilgan. Bundan tashqari amaliy mashg'ulot ishlanmasi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, matnning oxirida mavzuga oid topshiriqlar, nazorat va test savollar berilgan.

Ingliz tilini o'qitishning davlat ta'lim standarti (CEFR) bo'yicha to'rtta kunikmalar: 1. Listening (tinglab tushunish), 2. Reading (o'qish), 3. Speaking (gapirish), 4.Writing (yozish) asosida tayyorlangan qiziqarli topshiriqlardan juda samarali ravishda foydalanish maqsad qilib qo'yilgan. O'qituvchi dars davomida o'zining chuqur bilimini, pedagogik mahoratini ishga solib darsning mazmunini talabalarga yetkazib berishni maqsad qilgan. Dars davomida axborot texnologiyalaridan va interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqilganligi ochiq amaliy darsini samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, F.P.Davronova tomonidan tayyorlangan amaliy mashg'ulot ishlanmasi. U o'zining mazmun va mohiyati, amaliy masalalarning yoritilishi bilan bugungi kun talabiga to'liq javob beradi. F.P.Davronovani ko'p yillardan beri ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan tajribali peadgog sifatida taniyman va mahorat darsini ommalashtirishni tavsiya qilaman.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,**
**chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**
**Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi** **D.A.Yunusova**

___ning imzosini TASDIQLAYMAN
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Xodimlar bo'limi boshlig'i

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Xorijiy tillar kafedrasi katta o'qituvchisi, p.f.f.d.(PhD) F.P.Davronova tomonidan 60310100-Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi 1-bosqich 102-guruh talabalariga ingliz tili fanidan "Topic: Shopping. Grammar:Past Simple." mavzusida tayyorlangan amaliy mashg'ulot ishlanmasiga**

# TAQRIZ

Yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab yildan-yilga o'sib bormoqda, xususan ingliz tilini innovatsion metodlar asosida o'qitishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu esa, o'z navbatida, filolog-pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi.

Katta o'qituvchisi F.P.Davronova tomonidan Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) ta'lim yo'nalishi I bosqich 102-guruh talabalariga ingliz tili fanidan "Topic: Shopping. Grammar: Past Simple." mavzusida tayyorlangan amaliy mashg'ulot ishlanmasi haridlar mavzusi to'g'risida aniq va kerakli ma'lumotlar berilgan, shuningdek, mavzuga tegishli yangi so'zlar va topshiriqlar ko'rsatilgan. Amaliy mashg'ulotda "Past Simple" grammatik mavzusiga doir qiziqarli ma'lumotlar ko'rsatilgan va misollar bilan boyitilgan.

F.P.Davronova "Topic: Shopping. Grammar: Past Simple." mavzusini turli tarqatma materiallar yordamida va Power Point dasturida tayyorlangan slaydlar vositasida yoritib bergan hamda mavzuga doir qiziqarli ma'lumotlar keltirgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, F.P.Davronova amaliy mashg'ulot ishlanmasi fanning ishchi dasturiga va ish rejasiga asosan tayorlagan. Amaliy mashg'ulotning ishlanmasi uslubiy ko'rsatmalar, nazorat va test savollariga asoslangan holda to'g'ri yoritilgan.

Ochiq dars ishlanmasini inobatga olib, o'qituvchi F.P.Davronova tomonidan o'tkazilishi rejalashtirilgan ochiq amaliy mashg'ulot darsi bugungi kun talablariga javob beradi, talabalarning ingliz tili bo'yicha bilim va ko'nikmalarini, dunyoqarashini oshirishga xizmat qiladigan darajadagi dars bo'ladi deb hisoblayman va mahoratli pedagog sifatida tajribasini ommalashtirishni tavsiya qilaman.

**Taqrizchi:** **G.X.Xasanova**

Samarqand davlat chet tillar instituti "Ingliz tili tarixi va grammatikasi" kafedrasi v.b. dotsenti, f.f.f.d., PhD

XODIMLAR BO'LIMI

...NING IMZOSINI TASDIQLAYMAN